

# Xizmatlar sohasi

(dastlabki ma'lumotlar)

2018 yil yanvar-may

## Raqamlar:

- 2018 yil yanvar-may oylarida bozor xizmatlari hajmi – 2050,1 mlrd. so'm tashkil etdi.
- Jami xizmatlarning o'sish sur'ati 106,7 % ni tashkil etdi.
- Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 813,7 ming.so'mni tashkil etdi.


Zamonaviy dunyoda xizmatlar sohasi iqtisodiyotning eng istiqbolli va jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Ko'rsatilayotgan bozor xizmatlari turlarining ro'yxati juda xilma-xil bo'lib, bular savdo va transport xizmatlaridan tortib moliyaviy, sug'urta va turli xil vositachilik xizmatlaridan iborat.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar doirasida chora-tadbirlarning davom ettirilishi xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish imkonini bermoqda. Natijada, viloyatimizda 2018 yil yanvar-may oylarida xizmatlar ishlab chiqarish hajmi 2050,1 mlrd. so'mni tashkil etdi .

Bozor xizmatlarining eng katta hajmi savdo xizmatlari, transport xizmatlari, moliyaviy xizmatlar, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari, yashash va ovqatlanish xizmatlarida kuzatilmoqda.


Xizmatlar tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari (41,2 %), transport xizmatlari (17,7 %), moliyaviy xizmatlari (11,6 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (6,6 %), yashash va ovqatlanish xizmatlari (3,9 %), shaxsiy xizmatlar (3,3 %) va kompyuterlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar (3,2%) tashkil etadi.

### 2018 yil yanvar-may oylarida xizmatlar tarkibi (jami hajmga nisbatan, %)




Xizmatlar jamiyat hayotining muhim sohasi bo'lib, hayot darajasini oshirishning asosiy omili hisoblanadi.

## 2018 yil yanvar-may oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



2018 yil yanvar-may oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar (140,5 %), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (130,4 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (129,7 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (114,9 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (106,7 %) kabi xizmatlarning o'sish sur'atlari yuqori sur'atlarda oshdi.

## Xizmatlar ishlab chiqarish hajmining taqqoslanishi, mlrd.so'm



Ta'kidlash joizki, jismoniy va yuridik shaxslarning xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun xizmatlar sohasini hududlarda muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishini ta'minlamasdan turib Respublika iqtisodiyotining yirik tarmog'i sifatida xizmatlar sohasini jadal rivojlantirib bo'lmaydi.

**2018 yil yanvar-may oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %**

	<b>Hajmi, mlrd,so`m</b>	<b>O'tgan yilga nisbatan o'sish surati %</b>
<b>Xizmatlar - jami</b>	<b>2050,1</b>	<b>106,7</b>
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	136,2	114,9
Moliyaviy xizmatlar	237,8	140,5
Transport xizmatlari	363,2	101,4
shu jumladan avtotransport xizmati	351,3	101,3
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	79,3	106,7
Savdo xizmatlari	844,8	101,2
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	62,6	103,3
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	57,8	129,7
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	20,2	106,7
Ijara xizmatlari	50,8	107,1
Kompyuterlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	65,3	100,5
Shaxsiy xizmatlar	67,9	100,3
Me'morchilik sohasidagi xizmatlar	14,2	130,4
Boshqa xizmatlar	50,0	95,4

2018 yil yanvar-may oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 813,7 ming so'mga teng bo'ldi, o'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan 104,5 % ni tashkil etdi.

### 2018 yil yanvar- may oylarida Surxondaryo viloyati bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlari



*Viloyat statistika boshqarmasi*  
*Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi*

Mas`ul: P.Eshboeva

(71) 230-85-85